
ONALARGA EHTIROM KO'RSATILDI

Xalqaro Oila kuni munosabati bilan tumandagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Xotin-qizlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzi barqarorligini ta'minlash" mavzusida amaliy seminar tashkil etildi.



Seminarda tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi muassasalarda tashkillangan Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlar raislari, hududdagi obro'-e'tiborli, boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan onaxonlar, faxriy pedagoglar qatnashdi.

Seminar kreativ yondashuv hamda yuqori darajadagi tayyorgarlik bilan o'tdi. "Buvijonim o'g'itlari" mavzusida davra suhbat o'quvchi qizlarning oilaviy qadriyatlar xususidagi qarashlarini shakllantirishga xizmat qilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Shuningdek, seminar davomida "Oila - muqaddas dargoh" shiori ostida rasmlar ko'rik-tanlovi, "Onalarga ehtirom" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkillandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-16 13:13:00